

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi markaziy apparati
xodimlari o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston
Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa
me‘yoriy-huquqiy hujjatlarini o‘rganish soatlari to‘g‘risida
MA'LUMOT**

Tadbirda ma'ruzachi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 5 avgustdagi “«Faxriy fuqaro» maqomini berish tartibi to‘g‘risida”gi 648-son qarori haqida tushuntirishlar berildi.

O‘zbekiston Respublikasida «Faxriy fuqaro» maqomi iqtisodiyot, fan, madaniyat va san'at, ta'lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy sohaning rivojlanishiga katta investisiya kiritgan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida xayriya (metsenatlik) faoliyatini amalga oshirayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga beriladi.

Qarorga muvofiq, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga «Faxriy fuqaro» maqomi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan berilishi mumkinligi ma'lumot uchun qabul qilinsin. Bunda qaror O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan qabul qilinadi, maqom berilishi to‘g‘risidagi guvohnoma O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi tomonidan imzolanadi va topshiriladi.

Ushbu qaror bilan «Faxriy fuqaro» maqomini berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomi, «Faxriy fuqaro» maqomini berish sxemasi, guvohnoma namunasi tasdiqlangan. Nizomda maqomni berishning asosi va tartibi, faxriy fuqaroning huquqlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Shu bilan birga ushbu maqomga ega bo‘lgan shaxslarga quyidagi huquqlar beriladi:

ko‘p martalik uch yillik vizani, uning amal qilish muddatini O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqish zaruriyatsiz, shu jumladan, oila a'zolari (er (xotini) va voyaga yetmagan bolalar) uchun cheklanmagan miqdorda uzaytirish imkoniyati bilan davlat boji to‘lanmasdan olish;

vaqtincha propiskani, shu jumladan, oila a'zolari (er (xotini) va voyaga yetmagan bolalar) uchun davlat boji to‘lanmasdan uch yilgacha muddatda ichki ishlar organlarida rasmiylashtirish va uzaytirish;

shu jumladan, oila a'zolari (er (xotini) va voyaga yetmagan bolalar) uchun vaqtincha propiska joyi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy propiska va yashash guvohnomasini davlat boji to‘lanmasdan olish;

hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining mansabdor shaxslari tomonidan birinchi navbatda qabul qilinish.

Qarorda maqom berilgan shaxsga nisbatan quyidagi hollarda uning maqomdan mahrum qilinishi to‘g‘risida qaror qabul qilinishi mumkin:

shaxs og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilinganda – sudning taqdimnomasiga binoan;

qo‘yilgan investisiyalar (pul mablag‘lari va boshqa mol-mulk) jinoiy faoliyatdan olingan daromadlar legallashtirilishi bilan bog‘liq jinoyat sodir etilishi natijasida olinganligi holati vakolatli organlar tomonidan aniqlanishi va tasdiqlanishi – sudning taqdimnomasiga binoan.

Maqomdan mahrum etish berilgan huquqlar bekor qilinishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, yig‘ilgan ishtirokchilar tomonidan o‘zlarini qiziqtirgan masalalar bo‘yicha ma'ruzachi savollar berishdi hamda belgilangan muddatda o‘tkazildi.